

QISHLOQ XO‘JALIGIDA AYLANMA MABLAG‘LARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY TAHLILI

Kalbaev Muratbay Aytbaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktorani

kalbaevmuratbay7@gmail.com

+99890 707 00 05

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida aylanma mablag‘lardan foydalanishning iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Aylanma mablag‘larning samaradorligi, ularning aylanish tezligi, saqlanish ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jalik korxonalarining moliyaviy faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, aylanma mablag‘lar, iqtisodiy samaradorlik, aylanish tezligi, moliyaviy barqarorlik.

I. KIRISH

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda agrar ishlab chiqarishning afzalliklari, jumladan, iqlim sharoiti, er resurslarining boyligi va mehnat resurslarining ko‘pligi, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Biroq, resurslarni samarali foydalanish, ayniqsa aylanma mablag‘larni optimallashtirish, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda asosiy muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda aylanma mablag‘larni boshqarishning xususiyatlariga qaraganda, ularning asosiy qismini urug‘lik, o‘g‘it, yom-yog‘och, yoqilg‘i va boshqa ishlab chiqarish resurslari tashkil etadi. Bu resurslarni samarali boshqarish nafaqat hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga, balki atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga ham yordam beradi. Masalan, o‘g‘itlarni oqilona foydalanish va sug‘orish tizimlarining zamonaviylashtirilishi orqali suv resurslarining sarfini kamaytirish mumkin.

O‘zbekistonda «yashil» iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligini hisobga olgan holda, aylanma mablag‘larni boshqarishning yangi usullarini joriy etish zarur. Buning uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarish usullarini qo‘llash va atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy metodlaridan foydalanish kerak. Masalan, aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘g‘itlar va suvning sarfini kamaytirish, shuningdek, qayta ishlatiladigan energiya manbalaridan foydalanish aylanma mablag‘larni samarali foydalanishni oshirish imkoniyatini beradi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Aylanma mablag‘larni boshqarish qishloq xo‘jaligida moliyaviy menejmentning muhim jihati bo‘lib, bu soha bo‘yicha dunyo olimlarining e‘tiborini tortmoqda. Chet el tadqiqotlari bu masalaning keng doirasini qamrab olib, aylanma mablag‘lar

strukturasini optimallashtirish, ularning samaradorligini oshirish usullari, shuningdek, tashkiliy va ichki omillarning resurslar boshqaruviga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Masalan, E. Bornhofen, T.G. Ramires, T. Bergonci, L.R. Nakamura, A.J. Righetto «Associations between global indices of risk management and agricultural development» maqolasida qishloq xo'jaligida aylanma mablag'larni boshqarish bilan bogliq risklarni tahlil qilib, mavsumiylik, tabiiy sharoitlarga bogliqlik va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olishning ahamiyatini ta'kidlaydilar [1]. R. Amarender «Farm profitability and labor use efficiency» maqolasi fermer xo'jaliklarining rentabelligi va mehnat resurslarini samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Muallif fermer xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini baholashda rentabellik ko'rsatkichlarining ahamiyatini ta'kidlaydi va mehnat resurslarining samaradorligini oshirishning asosiy omillarini ko'rib chiqadi. Maqola fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda resurslarni optimallashtirishning dolzarbligini ko'rsatadi [2]. M. Deloof «Does Working Capital Management Affect Profitability of Belgian Firms?» maqolasida aylanma mablag'larni samarali foydalanishni oshirish uchun aniq qishloq xo'jaligi va avtomatizatsiya kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taklif etadilar. Mualliflar xarajatlarni kamaytirish va rentabellikni oshirish uchun innovatsiyalarga investitsiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydilar [3].

Rossiya olimlari qishloq xo'jaligi sohasini, uning resurs potentsiali va aylanma mablag'larni foydalanishning xususiyatlarini o'rganishga katta hissa ko'shganlar. Bu boradagi eng muhim ishlar quyidagilar: O.V. Domojirova va E.V. Kulabuxova ilmiy maqolasida qishloq xo'jaligi korxonalarining resurs potentsialini ko'rib chiqib, ishlab chiqarish resurslarini samarali foydalanishga turli omillarning ta'sirini tahlil qiladilar. Mualliflar resurslarni optimal boshqarishning qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatdoshligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar [4]. V.P. Vasileva qishloq xo'jaligida takrar ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida qishloq xo'jaligi sohasida takror ishlab chiqarishning nazariy asoslari va aylanma mablag'larni takrar ishlab chiqarish jarayonini tahlil qiladilar. Mualliflar sohaning rivojlanish tendentsiyalari va ularning resurslarni samarali foydalanishga ta'siriga aloxida e'tibor beradilar [5].

O'zbek olimlari qishloq xo'jaligi korxonalarining aylanma mablag'lari bilan bogliq masalalarni o'rganishga muhim hissa ko'shganlar. Ularning ishlari O'zbekiston agrar sohasining xususiyatlarini aks ettirib, resurslarni samarali foydalanishni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taklif etadi. U.N. Abduraxmanov o'z tadqiqotlarida O'zbekiston agrar iqtisodiyoti sharoitida aylanma mablag'larni shakllantirish va foydalanishning xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Muallif qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun aylanma mablag'lar strukturasini optimallashtirishning zarurligini ta'kidlaydi [6]. I.A. Kudratov qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash kontekstida aylanma mablag'larni boshqarish masalalarini ko'rib chiqadi. U o'z ishlarida agrosanoat kompleksining xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma mablag'larni samarali foydalanishni baholashning metodologik yondashuvlarini taklif etadi [7]. X.R. Nazarov va A.K. Raxmanovlar qishloq xo'jaligi korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda aylanma

mablagʻlarning rolini tahlil qiladi. Mualliflar aylanma mablagʻlarni boshqarishning kompleksli yondashuvini, shu jumladan ularning strukturasi optimallashtirish va likvidligini oshirishni taklif etadi [8].

Bu tadqiqotlar qishloq xoʻjaligining xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma mablagʻlarning strukturasi optimallashtirish, risklarni boshqarish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Bu yondashuvlar Oʻzbekiston agrar soha korxonalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy metodlarning keng spektridan foydalanildi, ularga mantiqiy fikrlash, adabiy manbalarni tahlil va sharhlash, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, abstraksiyalash, bilimlarni tizimli tahlil qilish, maʼlumotlarni tasniflash, umumlashtirish va nazariy xulosalarni shakllantirish kabi usullar kiradi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida hujjatlarni va amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish, obʻektning vaqt oraligʻidagi rivojlanishini oʻrganish, retrospektiv tahlil, obʻektning dinamikasini kuzatish va tahlil qilish kabi metodlar qoʻllanildi. Bu metodlar tadqiqotning ilovachilligini va ilmiy asoslanganligini taʼminlash maqsadida amalga oshirildi.

IV. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Oʻzbekiston sharoitida agrar soha korxonalari ishlab chiqarishining spetsifikasi, aylanma mablagʻlarning alohida elementlarini normalashtirish zaruratini koʻrsatadi. Bu moddiy qimmatbaho zaxiralarini, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini va boshqa aylanma mablagʻlar komponentlarini shakllantirish uchun zarur boʻlgan resurs miqdorlarini aniqlashni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ichki zaxiralarni aniklash, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligini qisqartirish va tayyor qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tezrok sotish imkoniyatini yaratishga imkon beradi.

Normalashtirish ishlab chiqarish zaxiralari (masalan, urugʻliq, oʻgʻit, yoqilgʻi), tugallanmagan ishlab chiqarish (ekinlar, koʻp yillik oʻsimliklar) va dehqonchilik korxonalarining omborlaridagi tayyor mahsulot qoldiqlarida joylashgan aylanma mablagʻlarga nisbatan amalga oshiriladi. Aylanma mablagʻlar normativi ularning minimal hisoblangan miqdorini belgilaydi, bu korxonaning uzluksiz ishlashi uchun zarurdir. Xom ashyo, pul mablagʻlari va boshqa resurslarning amaldagi miqdorlari normativdan oshishi yoki kamligi mumkin, bu esa bu koʻrsatkichni agrar korxonalarining moliya faoliyatidagi eng dinamik parametrlardan biriga aylantiradi.

Aylanma mablagʻlar normalarini bajarmaslik ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga, taʼminlot yoki mahsulotni sotishdagi uzluksizlik sababli ishlab chiqarish dasturlarining boʻzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, normativdan ortiqcha zaxiralar moliya resurslarini aylanmadan chiqarib qoʻyadi, bu esa moddiy-texnik taʼminlotdagi kamchiliklarni, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining ritmsizligini koʻrsatadi. Bu oʻz navbatida resurslarning samarasiz foydalanilishiga, ularning «ishlatilmay qolishi»ga va dehqonchilik ishlab chiqarishining umumiy iqtisodiy samaradorligining pasayishiga olib keladi.

O‘zbekiston sharoitida, dehqonchilik iqtisodiyotda asosiy o‘rinni egallagan xolda, aylanma mablag‘larni oqilona normalashtirish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu suv, o‘g‘it va yoqilg‘i kabi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa suv resurslarining etishmasligi va barqaror dehqonchilik usullariga o‘tish zarurati sharoitida ayniqsa dolzarbdir.

Shu bilan birga, normativdan ortiqcha zaxiralar aylanma mablag‘larni aylanmadan chiqarib qo‘yadi, moddiy-texnik ta‘minlotdagi kamchiliklarni, ishlab chiqarish va mahsulotni sotish jarayonlarining ritmsizligini ko‘rsatadi.

Buning barchasi tashkilotlarning resurslarining faol ishlatilmay qolishiga, ularning samarasiz foydalanilishiga olib keladi. Hozirgi iqtisodiy sharoitda aylanma mablag‘larning statistik-iqtisodiy tahlilining ahamiyati ortmoqda, chunki korxonalar faoliyatining yakuniy natijalari ularning holati va foydalanish samaradorligiga bogliqdir.

Agrar soha korxonalarida aylanma moddiy-zaxiralardan foydalanishning xususiyatlarini belgilash va mavjud muammolarni aniklash maqsadida, qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xujayli tumanidagi «Qora ko‘l» fermer xo‘jaligining aylanma mablag‘laridan foydalanishning statistik tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

«Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida aylanma mablag‘laridan foydalanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlarning nomi	Shartli belgi	2023	2024	Absolyut o‘zgarish	O‘shish tezligi, %
Mahsulot, ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan daromad, (ming. sum)	T	721728	1080641	358913	149,7
Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati, (ming. sum)	\bar{A}	808335	810480	2145	100,2
Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti, aylanmalar	$K_a = \frac{T}{\bar{A}}$	0,89	1,33	0,44	149,4
Aylanma mablag‘larning saqlanish koeffitsienti, sum	$K_s = \frac{\bar{A}}{T}$	1,12	0,75	-0,37	66,7
Bir aylanishning o‘rtacha davomiyligi (kunlarda)	$D = \frac{\bar{A}}{T} \cdot k$	400,7	270	-130,7	67,4

«Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida aylanma mablag‘lar aylanish koeffitsienti 49,4 % ga o‘shish dinamikasini ko‘rsatmoqda, bu qishloq xo‘jaligi korxonasida aylanma moddiy-moliya vositalaridan foydalanish samaradorligining oshishidan dalolat beradi.

Buning natijasida aylanma mablag‘larni saqlagish koeffitsienti 0,37 so‘mga yoki 33,3 foizga kamayganligi kuzatildi. Aylanma mablag‘larning bir marta aylanishining o‘rtacha davomiyligi 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 130,7 kunga yoki 33,6 foizga qisqardi. Shunday qilib, aylanma aktivlarga qo‘yilgan mablag‘lar tezroq qoplana boshlagan.

Indeksli tahlil usuli yordamida nafaqat indikatorning dinamik o‘zgarishini, balki individual omillarning nisbiy va mutlaq ifodadagi samarali indikatorning o‘zgarishiga ta’sirini baholash muammosi hal qilinadi (2-jadval).

Alohida omillar ta’siri tufayli moddiy xarajatlarning mutlaq o‘zgarishi quyidagi formulalar bilan belgilanadi [9]:

Ishlab chiqarish uchun moddiy xarajatlarning mutlaq o‘zgarishi, jami:

$$\Delta M_{jami} = M_1 - M_0 = 514591 - 481152 = 33439 \text{ ming sum} \quad (1)$$

O‘rganilayotgan davrda «Qora ko‘l» fermer xo‘jaligi moddiy xarajatlarning umumiy miqdori 33439 ming sumga oshgan, yoki 6,9 % ga.

Materiallar xarajatlarining o‘zgarishining absolyut miqdorini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining material sig‘imligi darajasining o‘zgarishi hisobiga hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} \Delta M_m &= (m_1 - m_0) \cdot K_{a1} \cdot \bar{A}_1 = (0,399 - 0,420) \cdot 1,587 \cdot 810480 \\ &= -27010,9 \text{ ming sum} \end{aligned} \quad (2)$$

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida moddiy xarajatlarning absolyut o‘zgarishini aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsientining o‘zgarishi hisobiga hisoblash uchun, quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\begin{aligned} \Delta M_{Ka} &= (K_{a1} - K_{a0}) \cdot m_0 \cdot \bar{A}_1 = (1,587 - 1,417) \cdot 0,420 \cdot 810480 \\ &= 57868,3 \text{ ming sum} \end{aligned} \quad (3)$$

Mahsulot birligining material sig‘imini 0,021 so‘mga yoki 5,0 % ga kamayishi hisobiga 2024 yilda 2023 yilga nisbatan material xarajatlarining umumiy summasi 27010,9 ming so‘mga kamaygan.

2-jadval

«Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida moddiy xarajatlar umumiy miqdorining o‘zgarishiga alohida omillarning ta’siri

Ko‘rsatkichlarning nomi	2023	2024	o‘zgarishi	
			mutlaq (+;-)	nisbiy, %
Ishlab chiqarish uchun moddiy xarajatlar (M), ming so‘m	481152	514591	33439	106,9
Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (\bar{A}), ming so‘m	808335	810480	2145	100,2
Ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati, ming so‘m	1145600	1286478	140878	112,2
Mahsulotlarining material sig‘imligi	0,420	0,399	-0,021	95
Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti, aylanmalar	1,417	1,587	0,17	111,9

O‘rganilayotgan davrda aylanma mablag‘lar aylanish koeffitsientining 0,17 aylanmaga yoki 11,9% ga oshishi hisobot davrida «Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida moddiy xarajatlarning 33439 ming sumga o‘shishiga olib kelgan.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida moddiy xarajatlarning absolyut o‘zgarishiga aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatining ta’sirini baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\Delta M_{\bar{A}} = (\bar{A}_1 - \bar{A}_0) \cdot m_0 \cdot K_{a0} = (810480 - 808335) \cdot 0,42 \cdot 1,417 \\ = 1276,6 \text{ ming sum}$$

«Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida aylanma mablag‘lar qiymatining 2024 yilda 2145 ming so‘mga yoki 2023 yilga nisbatan 0,2 foizga oshishi moddiy xarajatlarning 1276,6 ming so‘mga oshishiga olib kelgan.

Shunday qilib, tahlil qilinayotgan korxonada moddiy xarajatlar miqdorining ko‘payishiga aylanma mablag‘lar hajmining ko‘payishi eng katta ta‘sir ko‘rsatgan, bu esa ularni «Qora ko‘l» fermer xo‘jaligida yanada samarali ishlatishni taqozo etadi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun korxonada oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

Korxonada aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi mehnat predmetlarining sifatini oshirish va tannarxini pasaytirish;
- moddiy resurslarni iqtisodiy sarflash;
- ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish;
- aylanma mablag‘larni normalizatsiya qilishni takomillashtirish;
- ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va ishlab chiqarish konsentratsiyasini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiya yutuqlarini joriy etish.

Yuqori sifatli va past xarajatli aylanma mablag‘lardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonini ularning kamroq miqdori bilan amalga oshirish imkonini beradi, natijada nisbatan kamroq moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini sarflash mumkin. Shu bilan birga, aylanma mablag‘larning katta qismi qishloq xo‘jaligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratilishi va bu yerda ko‘p narsa aniq korxonaning xodimlari va mutaxassislariga bog‘liq ekanligini hisobga olish kerak.

Aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanishning muhim sharti mehnat predmetlarini normalashtirishni takomillashtirishdir. Har bir qishloq xo‘jaligi korxonasi urug‘ va ekish materiallari, yoqilg‘i, qishloq xo‘jaligi mashinalari va boshqa texnikani ta‘mirlash uchun ehtiyot qismlar bilan etarli miqdorda ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Ushbu aylanma mablag‘larning yetishmasligi ishlab chiqarish sur‘atlarini sekinlashtirishga, qishloq xo‘jaligi ishlarini vaqtida va to‘liq miqdorda bajarmaslikka, mahsulotning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Aylanma mablag‘larni samarali foydalanishning bir qadar muhimi muammosi urug‘, yem-xashak, yoqilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar va kimyoviy himoya vositalari, qurilish materiallari va ehtiyot qismlarni saqlash uchun normal sharoitlarni yaratishdir. Saqlash va qo‘llash jarayonida ushbu turdagi aylanma mablag‘larning yo‘qotilishini kamaytirish, mahsulot birligiga sarflanadigan aylanma mablag‘larni qisqartirishga va asosiy ishlab chiqarish narxini arzonlashtirishga yordam beradi.

Mablag‘larning aylanish tezligini oshirish, qo‘shimcha investitsiyalar kiritish, yangi ishlab chiqarish tashkil etish va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun pul resurslarining bir qismini ozod qilish imkonini beradi. Bunga aylanma mablag‘larning

ishlab chiqarish sohasida bo'lish vaqtini qisqartirish orqali erishish mumkin. Buning uchun qisqa vegetatsiya davriga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlari navlari va duragaylaridan, va ularni yem-xashak bilan samarali to'ldirishdan, shuningdek, mahsulotni etishtirish va yig'ishning zamonaviy usullarini joriy etishdan foydalanish zarur.

V.XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirish, saqlanish ko'rsatkichlarini optimallashtirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilashga imkon beradi.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Aylanma mablag'larning boshqaruvini optimallashtirish – moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish tavsiya etiladi.

2. Resurslardan oqilona foydalanish – ortiqcha zahiralarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aylanma mablag'larning aylanish tezligini ko'paytirish zarur.

3. Moliyaviy tahlil va monitoringni kuchaytirish – doimiy ravishda moliyaviy faoliyatni tahlil qilish va samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish, bu orqali risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

4. Texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish – zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aylanma mablag'lardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishish mumkin.

VI.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bornhofen E., Ramires T. G., Bergonci T., Nakamura L. R., Righetto A. J. Associations between global indices of risk management and agricultural development // *Agric. Syst.* – 2019. – Vol. 173. – P. 281-288.

2. Amarender R. Farm profitability and labor use efficiency // *Indian Journal of Dryland Agricultural Research Development.* – 2013. – Vol. 28, No. 2. – P. 1-21.

3. Deloof M. Does Working Capital Management Affect Profitability of Belgian Firms? // *Journal of Business Finance and Accounting.* – 2003. – Vol. 30(3–4). – P. 573–587.

4. Доможирова О. В., Кулабухова Е. В. Особенности управления оборотными средствами в сельском хозяйстве // *Белгородский экономический вестник.* – 2018. – № 1(89). – С. 36-40.

5. Васильев В. П., Васильева Н. П. Методические аспекты анализа оборотных активов // *Проблемы и перспективы развития экономического контроля и аудита в России.* – 2015. – С. 163-169.

6. Абдурахманов У. Н. Управление затратами в аграрном производстве. – Ташкент: Узбекистан, 2022.
7. Кудратов И. А. Ликвидность и финансовая устойчивость сельскохозяйственных предприятий. – Ташкент: Фан, 2020.
8. Назаров Х. Р., Рахманов А. К. Особенности управления оборотными активами в аграрном секторе экономики Узбекистана // Экономика и финансы. – 2020. – № 3. – С. 45-51.
9. Сабетова Л. А., Зюзя А. В. Формирование и использование оборотных средств в сельском хозяйстве. – Мичуринск: МичГАУ, 2006. – 113 с.
10. Qoraqalpog‘ston Respublikasi Xujayli tumani «Qora ko‘l» fermer xo‘jaligining 2023-2024 yillardagi moliyaviy hisobotlari.
11. Kalmuratov B. S., Salieva A. D. The role of the organizational-economic mechanism in the development of innovation processes in agriculture // Science and Education in Karakalpakstan. – 2024. – No. 1/1(38). – P. 85-89.